KOGNITIV VA FIKRLASH FAOLLIGINI TARBIYALASHDA AJDODLAR MEROSINING O‘RNI

Safarova Rohatoy G‘aybullayevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta'limotlari” ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri, p.f.d., professor.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ajdodlar merosining o‘quvchilarning kognitiv faolligi, intellektual salohiyati va ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Unda kognitiv faoliyatning hissiy, aqliy, empirik va nazariy bilish shakllari, shuningdek, o‘quvchilarning umumiy va maxsus layoqatlarini rivojlantirishda ajdodlar merosi, xalq pedagogikasi va tasavvuf adabiyoti namunalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mutafakkir ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ va tanqidiy tafakkuri, intellektual faolligi hamda iqtidorini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ajdodlar merosini ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarda milliy g‘urur, ma’naviy-axloqiy sifatlar va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: ajdodlar merosi, kognitiv faollik, kognitiv faoliyat, intellektual rivojlanish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, xalq pedagogikasi, tasavvuf adabiyoti, mutafakkirlar, iqtidor, layoqat, kreativ fikrlash, tanqidiy tafakkur, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В статье раскрывается педагогическое значение наследия предков в развитии познавательной активности, интеллектуального потенциала и духовно-нравственных качеств учащихся. Анализируются эмоциональные, рациональные, эмпирические и теоретические формы познавательной деятельности, а также возможности использования наследия предков, образцов народной педагогики и суфийской литературы для развития общих и специальных способностей учащихся. На основе педагогических взглядов выдающихся мыслителей раскрываются возможности развития самостоятельного мышления, креативного и критического мышления, интеллектуальной активности и одарённости учащихся. Обосновывается, что интеграция наследия предков в образовательный и воспитательный процесс является важным фактором формирования у учащихся

национальной гордости, духовно-нравственных качеств и когнитивных компетенций.

Ключевые слова: наследие предков, познавательная активность, когнитивная деятельность, интеллектуальное развитие, духовно-нравственное воспитание, народная педагогика, суфийская литература, мыслители, одарённость, способности, креативное мышление, критическое мышление, национальные ценности.

Abstract. This article explores the pedagogical significance of ancestral heritage in developing students' cognitive activity, intellectual potential, and spiritual and moral qualities. It analyzes emotional, rational, empirical, and theoretical forms of cognitive activity, as well as the potential of using ancestral heritage, examples of folk pedagogy, and Sufi literature to develop students' general and special abilities. Based on the educational and pedagogical views of prominent thinkers, the article highlights opportunities for developing students' independent thinking, creative and critical thinking, intellectual activity, and giftedness. It is substantiated that integrating ancestral heritage into the educational process serves as an important factor in fostering students' national pride, spiritual and moral qualities, and cognitive competencies.

Keywords: ancestral heritage, cognitive activity, cognitive development, intellectual development, spiritual and moral education, folk pedagogy, Sufi literature, thinkers, giftedness, abilities, creative thinking, critical thinking, national values.

Har qanday xalq merosi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va o'zligini anglashi uchun metodologik manba vazifasini o'taydi. Chunki unda millat faxri va g'ururi bo'lgan ajdodlar aql-idroki, tafakkuri, ma'naviyati va madaniyati namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy meros avlodlar taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ularni ma'naviy-intellektual faollikka undaydi. Mazkur faollik kognitiv faollik sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv faollik o'quvchilarning haqiqiy bilim olishi va ularda faoliyat tajribasi hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Shaxs kognitiv faoliyati muayyan darajalarga ega bo'lib, uning aqliy taraqqiyotini ta'minlaydi. U hissiy bilish - sezgi, idrok, tasavvur orqali hosil qilinadi, ratsional bilish - tushuncha, mulohaza, aqliy xulosalar vositasida nazariyalar tarzida namoyon bo'ladi. Shuningdek, inson bilish faoliyatining kundalik, badiiy, ilmiy darajalari ham mavjud. Ilmiy bilish faoliyati tabiat va jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini bilishga qaratilgan. Shunga ko'ra, kognitiv faoliyat muayyan yo'nalish, aniq maqsad va vazifalarga ega bo'ladi.

Shaxs kognitiv faollik yordamida tarixiy, madaniy, ijtimoiy tajribaning mohiyati, atrof-olam, undagi voqea-hodisalarni to‘laqonli tarzda anglaydi. O‘quvchilar esa kognitiv faoliyat jarayonida tarixiy tajriba, voqea-hodisalar mazmun-mohiyatini anglash bilan birga, unga u yoki bu darajada javob qaytaradi. Insonning bilish jarayoni aniq bilimlar yordamida rivojlanadi. O‘quvchilar mutafakkir ajdodlarimiz merosi yordamida bilishning turli shakllarini o‘zlashtiradi. Bunga aqliy va hissiy bilishni misol qilib keltirish mumkin. O‘quvchi yoshlar bilish faoliyati orqali ma’naviy-madaniy, intellektual boylik, ajdodlar merosi va xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasi hamda qadriyatlarini egallaydi. Inson o‘zlashtirgan bilim va ijtimoiy tajribalarini tushuncha, qonun, prinsip va nazariyalar sifatida talqin qiladi va keyingi avlodlarga yetkazadi.

Bilish jarayoni muayyan bosqichlarga ega. Bosqichlar shaxsning dunyoni anglash darajasi, bilish faoliyatining shakl va metodlaridan kelib chiqqan holda turli-tuman bo‘ladi. Shaxsning bilish faoliyati o‘z xarakteriga ko‘ra hissiy hamda aqliy bilish shakllariga ajratiladi. Hissiy bilish jonli mushohadadan iborat bo‘lib, bilimning dastlabki manbaidir. Hissiy bilish orqali shaxs ongida narsa va hodisalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etadi. Hissiy bilish sezgi, idrok, tasavvur kabi muayyan shakllardan iborat bo‘ladi. Hissiy bilishda narsa va hodisalar shaxs ongida alohida aks etadi. Shuning uchun ham ular orasidagi aloqadorlik ba’zi hollarda shaxs e’tiboridan chetda qoladi.

Insonning sezgilari aqliy bilish manbai hisoblanadi. U muayyan dalillarga asoslanadi. Ushbu jarayonda buyum va hodisalar orasidagi aloqadorlik namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, inson tafakkuri nisbiy mustaqillikka ega. Shuning uchun ham tafakkur mantiqiy xulosa chiqarishga ko‘maklashadi. Inson hissiy bilishdan aqliy bilishga o‘tganda, uning bilish faoliyati sifat o‘zgarishiga uchraydi. Aqliy bilish tushuncha, hukm va xulosa shaklida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy bilish jarayonida empirik bilish bilan nazariy bilish uyg‘unlashadi. Empirik bilish jarayonida inson narsalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Empirik bilishning metodlari sifatida kuzatish, tasvirlash, tajriba hamda o‘lchovlarni ko‘rsatish mumkin.


Nazariy bilish jarayonida inson hodisalarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo‘ladi. Nazariy bilishning shakllari aniqlash, modellashtirish, abstraksiyalash, formallik, nazariyalar yaratish kabilardan iborat. Inson bilish jarayonida mantiqiy fikrlashning muayyan metodlaridan foydalanadi. Ular o‘rganilayotgan obyektga yaxlit yondashuv hamda narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Insonning bilish jarayonida nutq birliklari va turli shartli belgilar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda kognitiv faoliyat

ko‘rsatkichlari aks etadi.

Shaxsning bilish faoliyati muayyan vazifalarni bajaradi. O‘quv topshiriqlari yordamida o‘quvchilarda tarixiy-madaniy tajribalar, axborotlar haqida aniq tasavvur hosil qilinadi. Bu esa o‘quv-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz merosiga oid ma’lumotlar, bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Ulardan foydalanishga oid ijtimoiy tajriba shakllantiriladi.

Mutafakkir ajdodlarimiz insonning bilish faoliyati bilan bog‘liq muammolarning yechimiga qaratilgan metodologik yondashuvlarni ilgari surganlar. Chunki ular, birinchi navbatda, ta’lim oluvchilarning bilish imkoniyatlarini kengaytirishga e’tibor qaratgan. Buning uchun ta’lim oluvchilar oldiga ularning aqliy tarbiyasi, izlanuvchanligiga qaratilgan topshiriqlar qo‘yishga harakat qilganlar.

Kognitiv topshiriqlarni bajarish o‘quvchilardan intellektual faollik, evristik izlanuvchanlik hamda idrok jadalligini talab qiladi. Shu maqsadda mutafakkir ajdodlarimiz maktab va madrasalarda ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va izlanishga oid faoliyatlarini tizimli tarzda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Buning uchun, birinchi navbatda, fikr tarbiyasiga ustuvorlik berilgan. Shu maqsadda mutafakkirlar o‘quvchilarni mustaqil mutolaa bilan shug‘ullanishga da’vat etgan. Mustaqil mutolaa qilish va mantiqiy mashqlarni uzluksiz bajartirish orqali ta’lim oluvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo‘lganlar. Natijada, o‘quvchilarda o‘z natija, o‘z mehnatidan qoniqish hissi, ijobiy his-tuyg‘ular, muvaffaqiyat qozonishga intilish kabi sifatlar tarbiyalangan. Chunki X–XVI asrlarda yashagan mutafakkirlarning aksariyati maktab va madrasalarda yosh avlodga ta’lim-tarbiya bergan yoki tarbiya masalalari bilan muntazam shug‘ullangan. Ta’lim oluvchilar yangi axborot va bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularni kundalik hayotiy faoliyatlariga tatbiq etganlar. Shuning uchun ham o‘zlashtirilgan bilimlar yosh avlod uchun tarbiya manbai



sifatida xizmat qilgan. Ularning xatti-harakatlari va shaxsiy sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ular bu masalaga didaktik nuqtai nazardan yondashgan holda, ta’lim oluvchilarning ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish va ularga amal qilishlarini ta’minlashga erishganlar. Bunday yondashuv mutafakkir ajdodlarimiz faoliyatida yetakchi o‘rin egallagan. Ayniqsa, madrasada mudarrislik qilgan mutafakkir ajdodlarimiz ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishi va ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilishiga intilganlar. Kognitiv faoliyat ta’lim oluvchilarda turli kreativ g‘oyalarning tug‘ilishi va ularda emotsional kechinmalarning vujudga kelishiga asos yaratadi.

Shunga ko‘ra, mazkur faoliyat shaxsni faollik ko‘rsatish va pozitiv harakatlarni amalga oshirishga undaydi. Bunday faoliyatga yo‘naltirish maqsadida ajdodlarimiz pedagogik muhitning ideal modellarini yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Ta’lim oluvchilar esa mazkur jarayonning faol subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Chunki ta’lim oluvchilar, birinchi navbatda, o‘zlarini o‘rab turgan ijtimoiy-pedagogik muhitning mazmun-mohiyatini anglagan holda, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirishlari zarurligini mutafakkir ajdodlarimiz qayta-qayta uqtirganlar. O‘z xatti-harakatlarining mohiyatini anglash natijasida insonning bilim olish, ma’naviy yuksalish, atrof-muhitdagi voqelikni anglash, ma’naviy-axloqiy hamda intellektual rivojlanish ehtiyojlari qondirilishini ta’kidlaganlar.

Kognitiv faoliyatga egalik insonning o‘ylash, fikrlash, izlanish, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqatini ko‘rsatadi. Ajdodlar merosi esa xuddi mana shunday layoqatni tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zlashtirilgan bilim va shaxsiy sifatlar kognitiv faoliyat jarayoning mahsuli hisoblanadi. Mazkur jarayon faol, kreativ, tanqidiy xarakter kasb etishi uchun o‘quvchilarga ularni intellektual rivojlantirish, o‘ylashga undash, mushohada qilish, aniq xulosalar chiqarish, tahlil qilish imkonini beradigan didaktik materiallar taqdim etilishi kerak. Bunday didaktik materiallar sirasiga xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan tasavvuf adabiyoti va xalq pedagogikasi namunalarini kiritish mumkin.

Markaziy Osiyoda yashagan buyuk allomalar shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun tarbiya vositalari va ularni kognitiv o‘zlashtirish metodlariga alohida e’tibor qaratganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida mazkur vositalar va metodlarni har tomonlama tahlil qilib, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko‘rsatganlar. Shaxsni har tomonlama tarbiyalash

uchun aqliy va intuitiv bilish metodlarini qo‘llash zarurligini uqtirganlar. Empirik bilish metodlari sirasiga mutafakkirlar kuzatish, tajriba, tavsiflash, o‘lchash kabilarni kiritganlar.

Nazariy bilish metodlari sifatida esa abstraksiyalash, formallashtirish, modellashtirish kabilarni ko‘rsatganlar. Allomalar har bir metodning operatsional, qadriyatli jihatlari mavjudligini e’tirof etganlar. Metodning operatsional jihati shaxsning bilimdonligi, tarbiyalanganlik layoqatini ko‘rsatadi. Qadriyatli jihati esa uning samaradorligi, aniqligi, tushunarliligi, ishonchliligi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Ajdodlardan avlodlarga shaxsiy iqtidor, nutq, maqsadga yo‘naltirilgan holda mehnat qilish, fikrlash faoliyati, faoliyat jarayonida o‘z xatti-harakatlarining ijtimoiy tajriba sifatida uzatilishini ko‘rsatganlar.

Ajdodlardan bir qator sifatlarning milliy mentalitet doirasida kelgusi avlodlarga o‘tishi fanda isbotlangan. Milliy qiyofa, jismoniy quvvat, qon guruhlari, iqtidor va layoqat, intellektual hamda ma’naviy-axloqiy sifatlar shular jumlasidandir.

Biologik xususiyatlar shaxsning o‘ziga xosligi va farqli jihatlarini namoyon etadi. Meros tushunchasi doirasida ajdodlardan kelgusi avlodlarga o‘tadigan bir qator sifatlar nazarda tutiladi. Ajdodlardan avlodlarga o‘tadigan xususiyatlar sirasiga ularning kognitiv faolligi ham kiradi. Ajdodlarimiz yuksak aql-zakovat egasi bo‘lganliklari tufayli ham ularning xususiyatlari va intellektual imkoniyatlari mahsuli bo‘lgan kognitiv-ma’naviy sifatlar yosh avlodning shaxsiy sifatlarini tarbiyalashning manbai hisoblanadi.

Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan tarbiyaviy meros yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa ularning ma’naviy-intellektual jihatdan rivojlanishi uchun pedagogik asos yaratadi. O‘quvchi yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish natijasida jamiyatning ma’naviy qiyofasi tarkib topadi va sog‘lom madaniy-ijtimoiy muhit vujudga keladi. Ta’lim-tarbiya mazmunida xalq ijtimoiy tajribasining ifodalanishi o‘quvchilarda kognitiv faollikning vujudga kelishiga asos bo‘ladi va ta’lim muassasasining tarbiyaviy imkoniyatlari kengayadi. Ularda qiziqishlar, layoqatlar, iqtidorning to‘liq namoyon bo‘lishi uchun sharoitlar yaratiladi. O‘quvchilarda kognitiv layoqatlarning shakllanishida ajdodlar merosi va mavjud pedagogik shart-sharoitlar muhim o‘rin egallaydi. Ajdodlarimiz merosi asosida tanlangan didaktik vositalar o‘quvchilarning sifatlari bilan bir qatorda, ularning anatomik, morfologik xususiyatlarini ham rivojlantirishga ko‘maklashadi.

O‘quvchilardagi rivojlanish ko‘rsatkichlari ularning integrativ xarakterdagi layoqatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda

o‘quvchilarning umumiy va individual layoqatlari o‘zaro farqlanadi. Umumiy layoqatlar o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish bilan bog‘liq vaziyatlarning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Bu aqliy layoqatlar, qo‘l harakatlarining aniqligi va nozikligi, xotiraning rivojlanishi, nutq va muomala madaniyatining takomillashuvida aks etadi.

Maxsus layoqatlar esa shaxsning o‘ziga xos layoqatlari sifatida namoyon bo‘lib, o‘quvchilarning o‘quv-tarbiya jarayonidagi faoliyati muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Bunday layoqatning namoyon bo‘lishi uchun o‘quvchilarning iqtidorini tarbiyalash lozim. Ushbu maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy jarayonlar o‘quvchilarning kreativ, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, texnik-ijodkorlik, tashkilotchilik iqtidorlarining namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarning umumiy va maxsus layoqatlari bir-birini boyitishini mutafakkir ajdodlarimiz ko‘rsatib o‘tganlar. Bunda iqtidorning ajdodlardan avlodlarga o‘tishiga ham e’tibor qaratish lozim. Masalan, poetik, musiqiy, tasviriy faoliyat, texnik ijodkorlikka oid layoqatlar ajdodlarimiz faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lgan. Bunday layoqatlarni yosh avlodda tarbiyalash orqali uning ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan kurtaklarini rivojlantirish mumkin.

Ajdodlar merosi vositasida o‘quvchilarning kognitiv sohalarini faollashtirishda ularning qiziqishlari va mayllarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bu ota-onalar va o‘qituvchilarning bolalarning har bir harakatini chuqur tahlil qilishini taqozo etadi. Ularda mavjud bo‘lgan iqtidor nishonalarini tarbiyalash va rivojlantirish ota-onalar va pedagoglardan ham mas’uliyat talab etadi. Bu ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishlariga bog‘liq.

Har bir bola faoliyatning muayyan turiga qiziqadi. Shunga ko‘ra, ajdodlar tajribasiga asoslanib, mazkur faoliyat usullarini o‘zlashtiradi. Ota-onalar va o‘qituvchilardan bolalarni ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tib kelayotgan faoliyat turlariga qiziqtirish talab qilinadi. Bu, o‘z navbatida, ajdodlar tajribasining davomiyligi va millatimiz vakillari orasida iqtidorlarni tarbiyalashga mas’uliyat bilan yondashishni ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining qiziqishlarini rag‘batlantirish asosida ularni o‘zlari qiziqqan faoliyat turiga jalb etish lozim. Buning uchun dastlab o‘quvchilarda kognitiv faollikni ta’minlash talab qilinadi.

Har bir shaxsning iqtidori muayyan faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. Mutafakkir ajdodlarimiz san’at va fanning muayyan sohasida faoliyat ko‘rsatib, butun dunyoga o‘zbek millatini tanitishga muvaffaq bo‘lganlar. Bu millatimizning har bir vakilida milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash uchun asos yaratadi hamda o‘quvchilarda kognitiv fikrlash faoliyatin-

ing rivojlanishini ta’minlaydi. Iqtidor muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu faoliyatni inson o‘zining mavjud bilimlari, shart-sharoitlari, qiziqishlari, motivlari hamda ijtimoiy tajribasidan kelib chiqqan holda tanlaydi. Insonning ushbu faoliyat turida muvaffaqiyat qozonishi uning bilim darajasi va o‘zlashtirgan ijtimoiy tajribasiga bevosita bog‘liq. O‘quvchilarda intellektual faoliyat va kognitiv faollikning rivojlanishida xalqning ijtimoiy tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, ijtimoiy tajriba ajdodlar merosida mujassamlashgan bo‘lib, ko‘p asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib, boyib, rivojlanib boradi. U ajdodlar tafakkuri mahsuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4676839

2.Najot tarbiyada/X.Ibraimov, M.Quronov, F.Boqiyev. - Tosh- kent, "Noshir”, 2024. 62 b.

3.G‘oziyev, E. Ontogenez psixologiyasi: Nazariy-eksperimental tahlil. Toshkent: Noshir. 2010.

4. Pedagogika: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / M. X. To‘xtaxo‘jayeva tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.

5.Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.